



O'G'UZLAR VA ULARNING KELIB CHIQISHIGA DOIR YANGI MA'LUMOTLAR

Hakimova Zarnigor Muzaffar qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti 2-kurs talabasi

[*zarnigorkhakimova49@gmail.com*](mailto:zarnigorkhakimova49@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Xudoynazarov I.

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali O'g'uzlarning kelib chiqishi, qayerlarda yashaganliklari, qadimda nima bilan shug'ullanganliklari, Turk xoqonligi davrida uning tarkibida bo'lganligi va Turk xoqonligi yemirilgach qayerlarga borib joylashganliklari, Ko'chmanchilik hayoti, hozirda ham O'g'uzlarning avlaodlari bormi yoki yo'q? O'g'uz lahjasi kabi bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: O'g'uzla, G'uzlar, Ashinlar, Turk Xoqonligi, Uzlar, O'g'uz lahjasi, Qo'rquq ota, Ut, Ona bo'ri, O'zbek Turkmanlari, O'g'ur

OGHUZ AND THEIR ORIGIN

Hakimova Zarnigor Muzaffar qizi

Tashkent State University of Oriental Studies

2-cours Faculty of East Civilization and Historiy

Abstract: Through this article you can learn about the origin of the Oghuz, where they lived, what they did in the past, what they were part of during the Turkish khanate, where they settled after the end of the Turkish khanate, their nomadic life, whether there are still descendants of the Oghuz or not? Oghuz language may have some information.

Key words: Oguz, Guz, Ashin, Turkic khanate, Uz, Oguz dialect, Kurkut father, Ut, Mother wolf, Uzbek Turkmen, Ogur.

O'g'uzlar turkiyzabon qabilalardan biridir. VII asr boshlarida Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. 744-745 yillarda Turk xoqonligi tor mor etilgach hozirgi Mo'g'uliston hududida o'z davlatlarini tuzgan "Uyg'urlar qabila ittifoqi" ga borib qo'shilishadi. 840-866 yillarda Qirg'izlar tomonidan siqib chiqarilgach O'g'uzlar



hozirgi Sintszyan va Gansu viloyatiga ko'chib o'tishadi. IX-XI asrlarda Orol va Kaspiy dengizi bo'ylaridagi ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalar ittifoqiga borib qo'shiladilar qarorgoh qilib Yangikent shahri olinadi. O'g'uzlar Turk xoqonligi tugatilgandan keyin bir muncha vaqt davomida ko'chib yurishgan. Muqum bir joyda o'rnashishlari qiyin bo'lgan, bunga qabillalar ittifoqi sabab bo'lgan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. XI-XIII asrlarda O'g'uzlar etnomi O'rta Osiyo va Eronda turkman, Yaqin Sharqda esa turk etnomi bilan almashgan. O'g'uzlar turkman, ozarbayjon, turk hamda gagauz va qoraqalpoq etnogenezida muhim ro'l o'ynagan. VI asrda Turkiylar Oxota dengizidan Qrimgacha bo'lgan maydonni egallagan buyuk saltanat tuzishdi va bu saltanatning rivovlanishida O'g'uzlarning ro'li kattadir. VIII asrda turkiy xalqqa mansub bo'lgan Uyg'urlar O'g'uzlarni g'arbga ko'chishga majbur qilishadi. IX asrlarga kelib O'g'uzlarning bir qismi Volgani kechib o'tdi va Bijanaklarni (ya'ni Volga va Yoyiq daryosi bo'ylarida, Orol dengizi bo'ylaridagi dashtlarda yashovchi turkiy qabilalar birlashmasi) siquviga oladi. X asir o'rtalariga kelib O'g'uzlarning boshqa qismi Buxoroga ko'chadi va o'troqlashadi. XI asrda O'g'uzlarning bir qismi Forsga, qolganlari O'rtayer dengiziga ko'chishdi. Qolganlari esa Rassiyaning janubiy qismi orqali Bolqon yarimoroliga borib joylashdi. Ma'lumotlarda keltirilishicha Saljuqiylar davlatini tuzgan saljuqlar asli O'g'uzlar bo'lishgan, shu bilan birga hozirgi kunda turklar, turkmanlar, xorazmliklar, ozarbayjonlar hamda Anatoliya turklarining avlodlari ham O'g'uzlar hisoblanishadi. X asrning boshlarida O'g'uzlar Islom dinini qabul qiladilar. O'g'uzlarning ajdodlari o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, boshqirdlar, tatarlarni ham etnogenezida katta ro'l o'ynagan¹. O'g'uzlar haqida ko'plab maqolalar, kitoblar yozilgan. Biz ular haqida qiziq va aniq ma'lumotlarni shu maqola va kitoblar orqali bilishimiz mumkin. Mashhur Turkshunos olimimiz Ablat Xo'jayevning kitoblarida keltirilishlaricha O'g'uzlar qadimgi Xitoy manbalarida bir neshta nomlar bilan atalgan ularga misol qilib oladigan bo'lsak 'G'UZ' yani o'g'uz deb nomlangan. "Yuanxe" etnonimi Yuange deb ham talafuz etiladi, mazkur ma'lumotning uyg'urcha atamasi "O'g'uz" deb berilgan. Tuetkuat (tujiyue) qabilasining ajdodlari qadimda Orol dengizining g'arbida yashagan. Ular Xunlarga o'xshamagan alohida bir qabila edi. Aslida Asiena (Ashina) avlodlari G'arbiy dengiz (Shixayning) o'ng tomonida yashagan deb yozilgan. Qadimgi Xitoylar urf-odatiga ko'ra o'ng tomon g'arb, chap taraf sharq ma'nosida ishlatilgan².

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediasini 2000-2005 yillar

² Ablat Хужаев "Марказий Осиё Халқлари Тарихига Оид Маълумотлар". Тошкент 2015 . 31-63 betla



O'g'uz (o'g'iz) va u bilan bog'liq etnonimlar. Miloddan oldingi XII asrga taalluqli Ash-Shura (As-Suriya) bitiklari Osiyoning bepoyon dashtlaridan bostirib kirgan skiflar bosqini haqida xabar berar ekan, bu jangovar ko'chmanchilar nomini Ishguaz, ular boshlig'ining nomini "Ispak" deb ma'lum qiladi. Turkiy xalqlar tarixi bilan juda yaqin tanish bo'lgan odam "ishguaz" degan nom aslida "o'g'iz" nomi bilan bog'liqligini tezda payqaydi... O'sha qadimiy bitiklardagi Ispak ismiga kelsak, ash-shuraliklar bosqinchilarning o'zlariga begona, noma'lum ismlarini buzib yozishlari tabiiy. Aslida esa skiflar boshlig'ining ismi O'g'izbek yoki shu ismning qisqargan shakli - O'zbek bo'lganiga shubha yo'q³. Demak, o'g'uz etnonimi qadimgi qabilalar nomi bilan bog'lanadi. Ayrim manbalarda O'rta Osiyoning tub aholisi orasida miloddan avvalgi davrlarda "ishguaz-augas" (o'g'uz) deb atalgan turkiy qabila va urug'lar haqida ham ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, I.Jabborovning yozishicha, O'rta Osiyodagi mahalliy qabilalar orasida "apasiak" va "augasiy" nomli turkiy elatlar hududning tub aholisidan sanalganlar. Augasiylar keyinchalik "o'g'uz"nomi bilan mashhur bo'lishgan . Nasimxon Rahmonovning yozishicha, miloddan avvalgi VII asrlarda Kenagas qabilasining qudratli Kengras nomli davlati yuzaga kelgan bo'lib, uning tarkibiga bir qancha turkiy urug'-qabilalar, jumladan qipchoq va o'g'uzlar ham kirgan⁴. Kengras davlati miloddan avvalgi VII asrdan milodiy V asrgacha yashab, Samarqand, Kesh, Kushon, Toshkent, Buxoro va Xorazmni o'z ichiga olgan. Davlat aholisi Ko'k tangriga sig'inib, qadimgi turkiy yozuvdan foydalanishgan. Umuman, qipchoqlar, qarluqlar va o'g'uzlarning VII asrdan to Turk xoqonligi tugaguncha mavqeyi baland bo'lgan. Hatto bu uchalasi qavmiy birlik sifatida VIII- IX asrlardagi manbalarda ham tilga olinadi. Ashina (o'g'uzlar)ning bayrog'ida bo'ri kallasining oltin rangli tasviri tushirilgan. Ularning Markaziy Osiyodagi mavqeyi ham baland bo'lgan. Darhaqiqat, miloddan avvalgi VII asrdan to milodiy asrimizning ikkinchi yuz yilliklarigacha yashagan va markazi hozirgi O'zbekiston, aniqrog'i Samarqand shahrida bo'lgan turkiy qabilalar sardori Alp Er To'nganing qudratli Sak-skif davlatining bayrog'ida ham bo'rining ramzi bo'lgan. Bu birlashmada ham ashin urug'i yoki o'g'uzlardek bo'ri totemidan tashqari Ko'k tangri (Osmon tangrisi)ga ham sig'inganlar va qadimgi turkiy (O'rxun-Enasoy) yozuvining ilk ko'rinishi ular davlatining ma'naviy hayotida, shubhasiz, katta rol o'ynagan. Demak, bu davlat tarkibidagi g'uz (o'g'uz), qabilasining mavqeyi sezilarli bo'lgan. Eroniylar skiflarni "sak"lar deb atashgan. Bu qudratli davlat nafaqat O'rta Osiyo, balki Dog'istondan Kichik Osiyoga qadar cho'zilgan hududlarda ham o'z

³ Хуршид Даврон “ Самарканд Хаели” Тошкент 1991. 235-236 betlar

⁴ Насимхон Рахмон “ Турк Хоконлиги” Тошкент 1993. 11-43 betlar



hukmini o'tkazgan. N.Y.Bichurin tarjimalarida "tugyu" turk etnonimining chjurchjenlar tilida aytilgan turk-ut atamasining xitoycha transkripsasi. "UT" chjurchjenlar tilida ko'plikni bildiradi. Mazkur etnonim ilk bora Asiena (Ashina) avlodidan tashkil topgan va bo'rini o'zlariga totem qilib olgan qabila nomi sifatida Xitoy manbalariga kirib keldi. Ablat Xo'jayev yozishlaricha esa Tuetikuamlar Xunlardan boshqa bir avlod bo'lib, ular Asiena (Ashina) urug'i deb atalar edi. Ularning o'zlari alohida qabila bo'lgan. Keyinchalik bu qabila qo'shni davlat tomonidan tor-mor etilib odamlari qirib tashlangan. Dushman lashkari ular avlodidan birgina 10 yoshlik bolani uning go'dakligini hisobga olib tirik qoldirishadi. Lekin mening fikrimcha bu o'ldirmaslik ema u bolani ikki oyog'ini kesib o't o'lan o'sib yotgan botqoqlikga tashlab ketishadi. Ona bo'ri uni topib olib boqadi katta qiladi. Shundan so'ng "Ona bo'ri" timsoli Turkiylar uchun muqaddas bo'lib qoladi⁵.

Karim Shoniyozov va Sh. Kamoliddinovlarning yozishlaricha, o'g'uz (g'uz)lar ilk o'rta asrlarda 24 qabiladan tashkil topgan yirik elat bo'lgan. VIII-IX asrlarda ular Sirdayo sohillarida va unga tutash cho'llarda, Orol dengizining janubiy-sharqiy mintaqalarida va Nurota tog' oldi rayonlarida yashaganlar. Ular IX asr oxiri X asr boshlarida O'g'uz davlatini barpo etganlar. Aniqrog'i, milodiy VIII-XI asrlarda Sirdaryo bo'ylarida o'g'uzlar hukmronlik qila boshlaydilar. Pecheneg (qipchoq)-larning bir qismi o'g'uzlar tarkibida bo'lib, Sirdayo sohillarida yashaganlar. XI asr boshlarida ular (o'g'uz-saljuqlar)ning katta bir qismi Amudaryoni kechib o'tib, Xuroson, Eron va Old Osiyodagi bir qancha mamlakatlarda hukmronliklarini o'rnatganlar⁶. O'g'uzlar ko'chmanchi turkiy qabilalar kanfederatsiyasini tashkil etganlar, ularning kelib chiqishi Oltoy va Janubiy Sibir bilan bo'g'liq. Al-Marvaziyning yozishicha G'uzlar musulmon mamlakatlari bilan aloqa o'rnatganlaridan so'ng ularning ayrimlari Islomni qabul qilganlar va ular "Turkmonlar" deb atalganlar. Keyinchalik esa ular va Islomni qabul qilmaganlar o'rtasida urush boshlangan va oxir oqibat musulmonlar g'alaba qozongan, dinsizlarni esa o'z yurtlaridan quvib chiqarganlar. Islomni qabul qilmagan qismi Xorazmni tark etib bijanaklar yerlariga borib o'rtnashganlar. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni Lug'ot at-Turk" asarida keltirishicha O'g'uzlar Turkklarning bir qabilasidir. Turkmanlar ularga kiradi. Ular 22 urug'dirlar, har bir jamoaning hayvon suratidagi alohida belgisi bor, ular shu tamg'alar orqali bir birlarini taniganlar. Bu qabilalar kiniklar, qoyg'irlar, bayondurlar, ipolar, solg'urlar, afshorlar, begtililar, bekduzlar, boyotlar, yozg'irlar, aymurlar, qorabuluklar, olkabuluklar, ig'dorlar, yudigerlar, tutirkalar, tuk

⁵ Ablat Хужаев "Марказий Осиё Халқлари Тарихига Оид Маълумотлар" Тошкент 2015. 39 бет.

⁶ Карим Шонезов "Карлук Давлати ва Карлуқлар" Тошкент "Шарк" 1999. 169-1170-175-176 бетлар



arlar, bijanaklar, juvoldorlar, jabnilar. O'g'uzlarning kattagina qismi XII asrda Xuroson va Yaqin Sharqqa qarab ko'chgan bo'lsalarda ularning bir qismi o'zlarining avvalgi makonlarida yani Xorazm atroflari va hozirgi Janubiy Qozog'iston hududlarida qolganlar⁷. Yuqorida aytib o'tganimizdek O'g'uzlar X asirda Islom dinini qabul qilganlar undan oldin esa O'g'uzlarning dini Qom(Shomon) dini bo'lgan. Aslida Shomon so'zi Tunguscha bo'lib turkiylarda deyarli qo'llanilmagan. Ibn Fazlon O'g'uzlar xudoni Tangri deb aytishgan deb habar bergan. Shuningdek O'g'uzlar xudoga nisbatan "Bayot" va "Ug'an" so'zlarini ham qo'llashgan. Qomlar ota unvoni bilan atalganlar. O'sha davrda otani "qang" deganlar. Turkiylar Shomonlarning ilohiy kuch sohibi, noyob qobiliyatga ega ekanliklariga ishonganlar va ular oldida katta bir qo'rquv va hurmat hissini tuyganlar. XI asirga kelib O'g'uzlarning Qora dengiz bo'ylariga ko'chgan bir qismidan tashqari hammalari musulmon bo'gan. XI asr boshlarida O'g'uzlarning kattagina qismi Amudaryodan kechib o'tib, Xuroson, Eron va Old Osiyodagi bir qancha mamlakatlarda hukumronliklarini o'rnatadilar. Bir qismi Anatoliya (hozirgi Turkiya hududi) yarim oroliga borib o'rinishib aholisining talay qismini va Turkman xalqini tashkil etishgan. Afg'oniston va Eron hududida yashayotgan O'g'uzlar esa shu kungacha o'zlarining Turkman etnik nomlarini saqlab kelishmoqdalar. O'g'uzlarning Nurota va Zarafshon vohasida yashab qolganlari o'zlarini "O'zbek Turkmanlari" yoki "Nurota Turkmanlari" nomi bilan ataydilar. O'zbek xalqining dialekt va shevalarida va 92 bovli shajara ro'yxatida O'zbekning O'g'uz va Turkman urug'lari sifatida o'rin olgan. O'g'uzlar bo'yicha izlanishlarim natijasida huddi bizda "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish" dostolari bo'lganidek O'g'uzlarda ham "Kitabi Dadam Qo'rqu" hikoyasi bor ekan. Turkiy xalqlar orasida Dada Qo'rqu, Qo'rqu ota, Dede Korkut, Gorkut ata, Baba Qo'rqu kabi nomlar bilana atalib, shomon urug'i oqsoqoli, qabila sardori, homiy (shamol homiysi), donishmand, roviy, baxshi, bahodir, avliyo kabi sifatlar bilan ulug'langan. U haqida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan ekan. Turkiylarning ikki kitobiy eposidan biri bo'lgan "Kitabi Dadam Qo'rqu" da asosiy roviy bo'lgan Dada Qo'rqu bayot urug'idan bo'lgani, Rasul alayhissalom zamonlariga yaqin yashaganliklari aytilgan. Dada Qo'qu haqida olimlar 2 xil xulosaga kelishgan:

Birinchisi: uni tarixiy shaxs deb bilib, O'g'uzlarning avliyosi, urug' oqsoqoli bo'lgani, uzoq umir ko'rib ularga rahnamolik qilganini ta'kidlasa.

⁷ Mahmud Qoshg'ariy "Devoni Lug'ot at-Turk". I tom. Toshkent. "Fan", 1960



Ikkinchi toifa: Dada Qo'rqutni-O'g'uz xalqlari tomonidan o'z onglariga singdirilgan, orzu-istaklari aks etgan epik qahramon xolos deb hisoblashadi.

Ma'lumot o'rnida keltirish lozimki, bugungi kunga qadar Dada Qo'rqit ishtirok etgan "Kitabi Dadam Qo'rqud"ning, 3 qo'lyozma nusxasi aniqlangan. 2018-yili Eronning Turkman sahrosidan topilgan "Solur Qozonning yetti boshli ajdarhoni o'ldirishi"ni – epos nusxasidan ko'ra, bo'yi deb atash maqsadga muvofiqdir. Sababi, epos nusxasida unga oid ko'plab bo'ylar aks etishi lozim. Turkman sahrodan topilgan nusxada esa birgina bo'y (hikoyat) mavjud⁸.

Shuningdek, Qozog'iston, O'zbekiston hududidan Qo'rqit otaga oid ko'plab afsonalar yozib olingan-ki, ularning sanog'i 20 dan oshadi. Qozoq qardoshlardan qog'ozga tushirilgan Qo'rqit ota kuylarini ham unutmaslik lozim. 20 ga yaqin kuy 1975-yili M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti tomonidan tashkil etilgan musiqa-folklor ekspeditsiyasida M.Boydildayev tomonidan nuroniy qo'bizchi Nishon – Ismoyil Shemenovdan qo'biz ijrosida magnetofon tasmasiga muhrlanadi. Hozirda kuylar institutning musiqa bo'limida saqlanmoqda. Ulardan 12 tasi notaga solingan.

E'tiborli jihatlardan yana biri, Qo'rqit otaga nisbat beriladigan qabrlar soni ham talaygina. Bizning sanog'imizga ko'ra, ular hozircha 4 tani tashkil qilmoqda. Balki, kelgusida ularning soni yanada oshar. Jumladan, Turkiyaning Bayburt shahrida, Ozarbayjonning Darband shahrida, Qozog'istonning Qizilo'rda viloyatida, Eronning Turkman sahrosida.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida, Qo'rqit otaga oid qabr (ramziy qabr ham bo'lishi mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan shaharlardagi qabrlar ham ramziy bo'lishi ehtimoli yo'q emas, chunki, ular ilmiy-arxeologik tadqiqotga tortilmagan) O'zbekiston hududida ham bo'lishini ko'rsatmoqda. Rasman Turkiya va Ozarbayjon hududidagi Qo'rqit ota maqbaralari qayd etilib, turkiy qavmlar tomonidan ziyorat qilinishini ta'kidlash joiz.

Xulosa qilib aytganda O'g'uzlar qadimda dastlab Sirdaryo bo'ylarida, Orol va Kaspiy dengizlari bo'ylarida hozirgi Turkmaniston hududlarida, yashaganlar Turk xoqonligi tarkibida bo'lishgan. Turk Xoqonligi yemirilgach ko'pgina qismi boshqa hududlarga ko'chishga majbur bo'lishgan. Ko'plab sarson sargardonchiliklardan so'ng bo'linib Eron, Turkiya, Xitoy va boshqa hududlarga borib o'nashadilar. O'g'uzlar urug'i, O'g'uzlar xaqida ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Ya'ni aytmoqchimanki O'g'uzlar haqida ma'lumotlar chuqurlashtirib

⁸ Turkona.Uz "Qo'rqit ota va O'g'uzlar haqida yangi qaydlar" Davronbek Oripov



o'rganilmagan. Ayrim joylarda O'g'uz atamasi "O'g'ur" deb ham ishlatilishiga guvoh bo'lamiz. O'guzlar Oltoy tog'larida ham yashashgan va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. O'g'uzlar haqida ma'lumotlar ko'pgina asarlarda qisman bo'lsa ham shu haqida ma'lumot berib o'tilgan. O'g'uzlar kamonboz ham bo'lishgan. Hozir O'g'uzlarning avlodlari bormi? Bor bo'lsa qaysi hududlarda yashaydi? Qaysi lahjada gaplashadi degan savollar tug'ilishi tabbiydir. Javobimiz ha O'g'uzlarning avlodlari hozir ham bor va ular Xorazm va Qoraqalpoq hududlarining bir qismida, Turkmanistonda, Qirg'iziston va Qozog'istonda, qisman Oltoyda yashashar ekan. Lahjasiga keladigan bo'lsak ularning lahjasi avval Xorazm shevasiga o'xshash deb ba'zi manbalarda keltiriladi. Hozir esa ularning avlodlari lahjalari hozir yashayotgan joylari kabi ya'ni yillar davomida unutilib deyarli yo'q bo'lgan." Qancha izlansang ham poyoniga yetolmaysan. Imkon qadar izlanmoq, aql yetgani qadar ilm marralarini egalamoq lozim" degan ekan. Darhaqiqat, ilmu hikmatda chegar yo'q. Biz ham turk-o'g'uzlar tomonidan ardoqlanib, hozirda ham yosh-avlod ongiga faxr tuyg'usi bilan singdirilayotgan, Payg'ambarimiz zamoniga yaqin yashagan tarixiy shaxs deya hisoblangan Qo'rqut ota haqida yangi ma'lumotlarimizni ulashdik. Ajab emaski kun kelib Qo'rqit ota haqidagi siru sinoatlar, manbalar, yangi qo'lyozmalar izlanishlar natijasida topib o'rganilsa, zero har qanday sinoatning kaliti ILIMDIR.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediasi 2000-2005 yillar
2. Аблат Хужаев "Марказий Осиё Халклари Тарихига Оид Маълумотлар" Тошкент . 2015
3. Хуршид Даврон "Самарканд Хаели" Тошкент. 1999
Насимхон Рахмон "Турк Хоконлиги" Тошкент. 1993
4. Карим Шониезов "Карлук Давлти ва Карлуклар" Тошкент. "Шарк" 1999
5. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni Lug'oti at-Turk" I tom Toshkent "Fan" 1960
6. Turkona.Uz "Qo'rqit ota O'g'uzlar haqida yangi qaydlar" Davronbek Oripov